



SURXONDARYO VILOYATI SHO'RCHI TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 4-iyul

161-8-120-Q/25

Sho'rchi tuman hokimligi

Tumanda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarori talablari ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021-yil 10-sentabrdagi 03-07/6208-sonli xati va 18-oktabr kunidagi 01-07/6859-sonli tavsiyasiga muvofiq tuman hokimligida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Surxondaryo viloyati hokimining 2023-yil 3-fevraldagi "Viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 87-8-0-Q/23-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyati hokimining mazkur qaroriga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida yangi tahrirda quyidagilar:

- tuman hokimligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati 1- ilovaga;
- tuman hokimligida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubi 2- ilovaga;
- tuman hokimligining manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizomi 3- ilovaga;

- tuman hokimligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 4- ilovaga;

- tuman hokimligida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 5-ilovaga;

- tuman hokimligida kontragentlarni o'rganishga oid yo'riqnoma 6-ilovaga;

- tuman hokimligiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 7- ilovaga;

- tuman hokimligida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga;

- tuman hokimligida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 9-ilovaga;

- tuman hokimligi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti 10-ilovaga;

- tuman hokimligida davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom 11- ilovaga;

- tuman hokimligining shartnomalariga korrupsiyaga qarshi takliflarni kiritish bo'yicha yo'riqnoma 12-ilovaga;

- tuman hokimligi tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo'yicha yo'riqnoma 13-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o'rinbosarlari, tuzilmadagi korxona va tashkilotlar rahbarlari, tuman hokimligi boshqaruv apparatining xodimlari odob-axloq qoidalari talablariga so'zsiz rioya etsin.

4. Tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (O'.Qoraboyev) tuman hokimligi boshqaruv apparati xodimlari va yangi ishga kirayotgan xodimlarning odob-axloq qoidalari bilan to'liq tanishtirilishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini yo'lga qo'yilishini ta'minlasin; mazkur qarorning 1-bandi bilan tasdiqlanayotgan nizomlar, qoidalar va yo'riqnomalarga tuman hokimligida rioya etilishini ta'minlash hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni kuchaytirish choralarini ko'rsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari va tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari O'.Qoraboyev zimmalariga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Ishmurzoyev